



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR.....	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY.....	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	
DAVLAT BUDJETIDA SOLIQ TUSHUMLARI O'ZGARISHINING EKONOMETRIK TADQIQOTI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	288
Suvanova Muxlisa Umar qizi	
ENERGETIKA RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	292
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
ENERGETIKA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUD IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	297
Sadullayev Axmadjon Ikrom o'g'li	



TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRINI BOJXONA NAZORATI MAQSADLARIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	303
Kilichov Nazar Bafojevich	
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	310
Botirov Lazizbek Botirovich	
KATTA MA'LUMOTLAR ASOSIDA TURISTIK XIZMATLARGA BO'LGAN TALABNI PROGNOZLASHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	314
Temirov Elyor Iskandarovich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI SAMARADORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI.....	322
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA AJRATILAYOTGAN BANK KREDITLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	328
Alijonov Ilyosbek Alijonovich	
THE ECONOMIC CHARACTERISTICS OF NON-PERFORMING LOANS AND THEIR IMPLICATIONS FOR BANK OPERATIONAL EFFICIENCY	334
Rustamov Jonibek Ravshanbek o'g'li	
IQTISODIY TARMOQLAR RIVOJIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION KREDITLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	341
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
TASHQI SAVDONI BOZOR NAZARIYASI ASOSIDA MINTAQANING BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	346
Dilnoza Ochilova Ismoil qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SINERGIK SAMARALARINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	351
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
LOGISTIK TERMINALLAR FAOLIYATINI EKSPERT BAHOLASH USULI ASOSIDA TADQIQ ETISH.....	357
Zohidov Muhriddin G'ofurjon o'g'li	
Jumayev Sherzod Bahrom o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA XIZMATLAR SOHASINING IJTIMOIIQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA HUDUDIIY TAFOVUTLAR DARAJASI.....	367
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Sherzodova Diyora Sherzod qizi	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIQTISODIY OMILLARNING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI STATISTIK BAHOLASH	373
Maxmatqulova Hikoyat G'iyosiddin qizi	
DIGITAL NOMADS AND THE CHANGING FACE OF GLOBAL TOURISM	379
Sirojiddinova Shahrizoda Davronovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	385
Sharipov Tohir Miraximovich	
URGANCH JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARINING MURAKKABLIK DARAJASINI BAHOLASH USLUBI	390
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINI KORXONANI HAYOTIIY AYLANISH BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBNING MOHIYATI	395
Muydinov Erkin Djamaldinovich	



HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHDA KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI	399
Raximov Jo'rabek Raximovich	



HUDUDLARNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHDA KLASSTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Raximov Jo'rabek Raximovich
Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarishda klasterlarni shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Klasterlarning ishlab chiqarish, bandlik, investitsiya, innovatsiya va hududiy raqobatbardoshlikka ta'siri tahlil qilinib, ularni samarali boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, klaster, boshqaruv, raqobatbardoshlik, investitsiya, innovatsiya, bandlik.

Abstract. This article highlights the importance of cluster formation in managing the socio-economic development of regions. The impact of clusters on production, employment, investment, innovation, and regional competitiveness is analysed, and proposals for their effective management are developed.

Keywords: regional development, cluster, management, competitiveness, investment, innovation, employment.

Аннотация. В данной статье раскрывается значение формирования кластеров в управлении социально-экономическим развитием регионов. Проанализировано влияние кластеров на производство, занятость, инвестиции, инновации и региональную конкурентоспособность, а также разработаны предложения по их эффективному управлению.

Ключевые слова: региональное развитие, кластер, управление, конкурентоспособность, инвестиции, инновации, занятость.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda klasterli yondashuv muhim vositalardan biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Xorijiy tajriba klasterlar tarmoq va tarmoqlararo integratsiyani rivojlantirish, innovatsion faollikni rag'batlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda hududiy ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga ko'maklashishi mumkinligini ko'rsatadi.

Klasterlarni shakllantirish jarayoni nafaqat alohida tarmoqlarning, balki butun hudud iqtisodiyotining rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan korxonalar, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, moliya institutlari hamda davlat boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari shakllanadi. Mazkur jarayon resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda texnologik va boshqaruv innovatsiyalarini joriy etishni jadallashtirishga ko'maklashishi mumkin.

Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, aholi bandligini ta'minlash va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, hududiy korxonalar o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash vazifalari belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan vazifalar belgilangan [2].



Shuningdek, 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son Farmonda hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini joriy etish, mahalliy hokimliklarning hududiy rivojlanish natijalari uchun mas'uliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan [3].

Mazkur vazifalarning amaliy davomi sifatida Prezidentning 2025-yil 1-apreldagi PQ-132-son qarori bilan ayrim tuman va shaharlarni jadal kompleks rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha maqsadli dasturlar belgilangan [4]. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarning samarali bajarilishi hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyatini aniqlash, ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish, korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani mustahkamlash hamda ishlab chiqarish, ilm-fan, ta'lim, moliya va infratuzilma subyektlarini yagona tizimga birlashtirishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, hududiy klasterlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, mahalliy resurslardan qo'shilgan qiymat yaratishda foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlarini tashkil etishga ko'maklashuvchi mexanizmlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Klaster yondashuvi hududiy boshqaruvning manzilligini oshirib, har bir hududning ixtisoslashuvi va raqobat ustunliklariga mos rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Shuning uchun hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarishda klasterlarni shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy taraqqiyotni samarali boshqarishda klaster yondashuvi mintaqaviy iqtisodiyot, innovatsiyalar va raqobat ustunliklarini shakllantirish bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etiladi. Klaster esa bir hudud doirasida faoliyat yurituvchi ishlab chiqarish subyektlari, ilmiy-ta'lim muassasalari, moliyaviy tuzilmalar va boshqaruv organlarining o'zaro hamkorlikka asoslangan yaxlit tizimini anglatadi.

Klasterlashuvning nazariy asoslari xorijiy olimlar tomonidan hududiy konsentratsiya, ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi bilan bog'liq holda o'rganilgan. A. Marshall korxonalarning bir hududda jamlanishi mehnat bozori, ta'minot tizimi va bilimlar tarqalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslagan [5]. F. Perru iqtisodiy rivojlanish yetakchi korxona va tarmoqlar atrofida shakllanadigan "o'sish qutblari" orqali hududga tarqalishini izohlagan [6]. J. Bekattini hududiy ishlab chiqarishda kichik va o'rta biznes kooperatsiyasi hamda mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy muhitning rolini ochib bergan [7]. M. Porter klasterlarni unumdorlik, innovatsiyalar va hududiy raqobatbardoshlikni oshiruvchi tizim sifatida baholagan [8; 9]. P. Krugman ishlab chiqarishning hududiy to'planishini miqyos samarasi, bozor sig'imi va transport xarajatlari bilan bog'lagan [10]. M. Enrayt esa mintaqaviy klasterlarni geografik qamrov, tarmoq tarkibi va rivojlanish bosqichlari bo'yicha baholashni taklif etgan [11].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda klasterlar innovatsion ekotizim, bilim almashinuvi va institutsional hamkorlikni ta'minlovchi hududiy boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etiladi. K. Ketels va O. Sölvell klaster siyosatida davlat, biznes, universitetlar hamda ilmiy tashkilotlar hamkorligini muvofiqlashtirish masalalarini o'rganganlar [12; 13]. M. Delgado, M. Porter va S. Stern klasterlarning bandlik, tadbirkorlik va innovatsion faollikka ijobiy ta'sirini empirik jihatdan asoslaganlar [14]. M. P. Menzel va D. Fornahl klasterlarning hayotiylik davri bosqichlarini, R. Boschma esa innovatsion hamkorlikda geografik, ijtimoiy, tashkiliy va institutsional yaqinlikning rolini tadqiq etgan [15; 16]. F. Kuk, B. Asxaym, A. Isaksen va M. Trippl klasterlarni hududiy innovatsion tizimlarning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaganlar [17; 18]. OECD tadqiqotlarida klasterlashuv hududlarning aqlli ixtisoslashuvi, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi vosita sifatida ko'rsatilgan [19].

O'zbekistonda klasterlashuv masalalari hududiy salohiyatdan foydalanish, sanoat va agrosanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, innovatsion faoliyat hamda mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish yo'nalishlarida tadqiq etilgan. D. K. Begimova klasterlashtirish asosida mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va hududiy o'sish nuqtalarini shakllantirish masalalarini o'rgangan [20]. M. F. Maxmudov hududiy sanoat klasterlarini aniqlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash usullarini taklif etgan [21]. G. N. Mahmudova va A. Qudratov innovatsion klasterlarni rivojlantirishda xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini yoritganlar [22].

G. X. Rayimjanova agrosanoat klasterlarining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish, ularning iqtisodiy salohiyatini baholash va rivojlanish ko'rsatkichlarini prognozlash masalalarini tadqiq etgan [23]. S. Y. Kadirov Xorazm viloyati misolida klasterlar samaradorligini oshirishning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini o'rgangan [24]. A. Sobirjonov esa sanoat klasterlarining ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faollik, tadbirkorlik va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini asoslagan [25].

Tadqiqotlarning umumlashtirilishi xorijiy ilmiy ishlarda klasterlarning nazariy, innovatsion va institutsional jihatlarini keng yoritilganini, mahalliy izlanishlarda esa ularning alohida tarmoq va hududlar rivojlanishidagi amaliy ahamiyatiga ko'proq e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Biroq klasterlarni shakllantirishning ishlab chiqarish,



investitsiya, bandlik, aholi daromadlari, infratuzilma va hududiy boshqaruv samaradorligiga kompleks ta'sirini yagona tizim asosida baholash masalalari qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik tahlil, guruhlash, taqqoslash, kuzatish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Klasterlarning hududiy rivojlanish, bandlik, investitsiya va raqobatbardoshlikka ta'siri o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Klasterlar hududiy rivojlanishni jadallashtiruvchi muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ular korxonalar, ilmiy muassasalar, xizmat ko'rsatish subyektlari va davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Natijada ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsiyalarni joriy etish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, klasterlar hududning investitsion jozibadorligi, eksport salohiyati va bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

Klasterlarning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir yo'nalishlari va kutilayotgan natijalar¹

Ta'sir yo'nalishi	Klaster doirasidagi jarayon	Kutiladigan natija
Ishlab chiqarish	Korxonalar o'rtasida xomashyo, texnologiya va xizmatlar kooperatsiyasi shakllanadi	Ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi oshadi
Xarajatlar	Logistika, infratuzilma va xizmat ko'rsatish imkoniyatlaridan birgalikda foydalaniladi	Mahsulot tannarxi va operatsion xarajatlar kamayadi
Qo'shilgan qiymat	Xomashyoni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichlari bog'lanadi	Hududda yaratiladigan qo'shilgan qiymat ortadi
Bandlik	Yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari rivojlanadi	Yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholi daromadlari ko'payadi
Investitsiya	O'zaro bog'langan korxonalar va tayyor infratuzilma shakllanadi	Hududning investitsion jozibadorligi oshadi
Innovatsiya	Korxonalar, universitetlar va ilmiy markazlar hamkorligi kuchayadi	Yangi texnologiya va mahsulotlar joriy etiladi
Eksport	Sertifikatlash, marketing va logistika xizmatlari muvofiqlashtiriladi	Eksport hajmi va tashqi bozorlar soni ortadi
Hududiy boshqaruv	Davlat ko'magi hududning ixtisoslashuvi asosida manzilli yo'naltiriladi	Boshqaruv qarorlarining samaradorligi oshadi

Jadval ma'lumotlari klasterlarning hudud iqtisodiyotiga ko'p yo'nalishli ta'sir ko'rsatishini namoyon etadi. Klasterlash ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda qo'shilgan qiymatni ko'paytirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratishi mumkin. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratiladi, investitsiya va innovatsion faollik kuchayadi. Eksport infratuzilmasining rivojlanishi hududiy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashishi mumkin. Bu esa hududiy boshqaruv samaradorligi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hududiy klasterlar samaradorligini baholashda faqat ishlab chiqarish hajmi bilan cheklanib qolish yetarli emas. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy, investitsion, innovatsion va institutsional ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilish zarur. Shu asosda klaster faoliyatining hudud rivojlanishiga ta'sirini ifodalovchi asosiy mezonlar tizimlashtirildi (2-jadval).

¹ Manba: muallif ishlanmasi.

Hududiy klasterlar samaradorligini kompleks baholash mezonlari va ko'rsatkichlar tizimi²

Ko'rsatkichlar guruhi	Asosiy indikatorlar	Baholash yo'nalishi
Iqtisodiy	Ishlab chiqarish hajmi, qo'shilgan qiymat, rentabellik, mehnat unumdorligi	Iqtisodiy natijadorlik
Ijtimoiy	Bandlik, yangi ish o'rinlari, o'rtacha ish haqi, aholi daromadlari	Ijtimoiy samaradorlik
Investitsion	Asosiy kapitalga investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar, loyihalar soni	Investitsion faollik
Innovatsion	Yangi mahsulotlar, texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar va patentlar	Innovatsion rivojlanish
Tashqi iqtisodiy	Eksport hajmi, eksport geografiyasi, eksportbop mahsulotlar soni	Tashqi bozor samaradorligi
Infratuzilmaviy	Logistika xarajatlari, saqlash quvvati, transport va xizmat ko'rsatish tizimi	Infratuzilma rivojlanganligi
Institutsional	Hamkorlik shartnomalari, qo'shma loyihalar, boshqaruv qarorlari bajarilishi	Muvofiqlashtirish sifati
Hududiy	Tumanlar o'rtasidagi ishlab chiqarish, bandlik va daromad tafovutlari	Hududiy mutanosiblik

Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar klaster samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Ular orqali ishlab chiqarish va investitsiya faolligi bilan bir qatorda bandlik, innovatsiya, infratuzilma va hududiy mutanosiblikdagi o'zgarishlarni ham aniqlash mumkin. Mazkur yondashuv klaster faoliyatidagi muammolarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari klaster yondashuvi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarishda qo'llanishi mumkin bo'lgan muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan biri ekanini ko'rsatadi.

Klasterlar korxonalar, ilmiy-ta'lim muassasalari, moliya institutlari, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar va davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, hududiy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Natijada ishlab chiqarish ko'lamini kengayadi, qo'shilgan qiymat ortadi, xarajatlarni kamayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda investitsion va innovatsion faollik oshadi.

Shuningdek, klaster samaradorligini baholashda iqtisodiy natijalar bilan birga bandlik, aholi daromadlari, infratuzilma rivoji, eksport salohiyati va hududiy mutanosiblik ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarur. Shu sababli klasterlarni har bir hududning resurs salohiyati, ixtisoslashuvi va bozor imkoniyatlariga muvofiq shakllantirish, ularning faoliyatini muntazam monitoring qilish hamda boshqaruv choralarini tabaqalashtirilgan holda qo'llash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarishda klaster yondashuvi muhim tashkiliy-iqtisodiy vositalardan biri ekanini ko'rsatdi. Klasterlar korxonalar, ta'lim va ilmiy muassasalar, moliya institutlari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Natijada ishlab chiqarish kooperatsiyasi rivojlanadi, qo'shilgan qiymat ortadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, investitsion va innovatsion faollik kuchayadi hamda hududning raqobatbardoshligi oshadi.

Klasterlarning samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki bandlik, aholi daromadlari, investitsiyalar, innovatsiyalar, eksport, infratuzilma va hududiy mutanosiblik ko'rsatkichlari orqali kompleks baholanishi lozim. Shu sababli klasterlarni shakllantirishda har bir hududning resurs salohiyati, iqtisodiy ixtisoslashuvi, mehnat bozori va infratuzilma imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

– Hududlarning tabiiy, iqtisodiy, mehnat va infratuzilmaviy salohiyatini baholash asosida istiqbolli klaster yo'nalishlarini aniqlash lozim.

– Klaster ishtirokchilari o'rtasida ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, moliyalashtirish va sotuv jarayonlarini birlashtiruvchi barqaror kooperatsion aloqalarni shakllantirish zarur.

2 Manba: muallif ishlanmasi.



– Klasterlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hududiy boshqaruv kengashlarini tashkil etib, ularga davlat, biznes, ilm-fan va ta'lim muassasalari vakillarini jalb qilish maqsadga muvofiq.

– Umumiy foydalaniladigan logistika markazlari, laboratoriyalar, saqlash omborlari, raqamli platformalar va maslahat xizmatlarini rivojlantirish zarur.

– Klaster samaradorligini ishlab chiqarish, bandlik, investitsiya, innovatsiya, eksport va ijtimoiy natijalarni qamrab oluvchi ko'rsatkichlar tizimi asosida muntazam monitoring qilish lozim.

– Rivojlanish darajasi past hududlarda klasterlarni qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar, soliqlar, rag'batlari, infratuzilmaviy yordam va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish zarur.

– Korxonalar bilan oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar hamkorligini kuchaytirib, klaster ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlash, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish lozim.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi hududiy resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy o'sish nuqtalarini shakllantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish hamda hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga ko'maklashishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2022. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2026. <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2024. <https://lex.uz/ru/docs/-7271094>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-aprelda "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-132-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. <https://lex.uz/docs/-7463047>
5. Marshall A. *Principles of Economics*. – London: Macmillan and Co., 1890. – 754 p.
6. Perroux F. Note sur la notion de «pôle de croissance» // *Économie appliquée*. – 1955. – Vol. 8, no. 1–2. – P. 307–320.
7. Becattini G. The Marshallian Industrial District as a Socio-Economic Notion // *Industrial Districts and Inter-Firm Co-operation in Italy* / ed. by F. Pyke, G. Becattini, W. Sengenberger. – Geneva: International Institute for Labour Studies, 1990. – P. 37–51.
8. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
9. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition // *Harvard Business Review*. – 1998. – Vol. 76, no. 6. – P. 77–90.
10. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // *Journal of Political Economy*. – 1991. – Vol. 99, no. 3. – P. 483–499. – DOI: 10.1086/261763.
11. Enright M. J. Regional Clusters and Economic Development: A Research Agenda // *Business Networks: Prospects for Regional Development* / ed. by U. Staber, N. V. Schaefer, B. Sharma. – Berlin; New York: Walter de Gruyter, 1996. – P. 190–213. – DOI: 10.1515/9783110809053.190.
12. Ketels C. H. M. Cluster Policy: A Guide to the State of the Debate // *Knowledge and the Economy* / ed. by P. Meusburger, J. Glückler, M. El Meskioui. – Dordrecht: Springer, 2013. – P. 249–269.
13. Sövell Ö. *Clusters: Balancing Evolutionary and Constructive Forces*. – 2nd ed. – Stockholm: Ivory Tower Publishers, 2009. – 137 p.
14. Delgado M., Porter M. E., Stern S. Clusters, Convergence, and Economic Performance // *Research Policy*. – 2014. – Vol. 43, no. 10. – P. 1785–1799.
15. Menzel M. P., Fornahl D. Cluster Life Cycles: Dimensions and Rationales of Cluster Evolution // *Industrial and Corporate Change*. – 2010. – Vol. 19, no. 1. – P. 205–238. – DOI: 10.1093/icc/dtp036.
16. Boschma R. A. Proximity and Innovation: A Critical Assessment // *Regional Studies*. – 2005. – Vol. 39, no. 1. – P. 61–74. – DOI: 10.1080/00343430052000320887.
17. Cooke P. Regional Innovation Systems, Clusters, and the Knowledge Economy // *Industrial and Corporate Change*. – 2001. – Vol. 10, no. 4. – P. 945–974. – DOI: 10.1093/icc/10.4.945.



18. Asheim B. T., Isaksen A., Trippi M. *Advanced Introduction to Regional Innovation Systems*. – Cheltenham; Northampton: Edward Elgar Publishing, 2019.
19. OECD. *Innovation-Driven Growth in Regions: The Role of Smart Specialisation*. – Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2013.
20. Begimova D. K. *Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Toshkent, 2023. – 56 b.
21. Makhmudov M. F. Industrial Regional Industry Clustering Assessment Methods: In Case of Uzbekistan // *Asian Journal of Technology & Management Research*. – 2022. – Vol. 12, issue 1. – P. 136–142.
22. Maxmudova G., Qudratov A. O'zbekistonda innovatsion klasterlarning xorij tajribasidan foydalanish istiqbollari // *Iqtisod va moliya*. – 2023. – № 1 (161). – B. 50–54.
23. Райимжанова Г. Х. Оценка эффективности управления кластеризацией агропромышленных комплексов // *Science and Innovation*. – 2024. – Special Issue, April. – С. 510–513. – DOI: 10.5281/zenodo.10948379.
24. Kadirov S. Y. *Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda klasterlar samaradorligini oshirish (Xorazm viloyati misolida): iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Urganch, 2025.
25. Sobirjonov A. Hududiy raqobatbardoshlikni oshirishda sanoat klasterlarining ahamiyati // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. – 2026. – Jild 4, № 2. – B. 191–197. – DOI: 10.60078/2992-877X-2026-vol4-iss2-pp191-197.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>